

Surxondaryoda tibbiyot xodimlari sharaflandi



Termiz shahridagi “Muhtasham” tantanalar saroyida “Tibbiyot xodimlari kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug’bek Qosimov ishtirok etib, Prezidentimizning mamlakatimiz sog’liqni saqlash sohasi xodimlariga yo’llagan bayram tabrigini o’qib eshittirdi.

Viloyat rahbari davlat mukofoti sohiblariga qimmatbaho sovg’alarni topshirdi. Shuningdek, tizimda alohida o’rnak ko’rsatgan bir guruh tibbiyot xodimlari viloyat hokimligining faxriy yorliq va sovg’alari bilan taqdirlandi.